SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (4- jild)
2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I3Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 3 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## *МУНДАРИЖА*


**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Hamroyev Asliddin Umed o'g'li*
"GULSHANUL MULUK" ("SHOHLAR GULSHANI") ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI ........ 13-18

*Bazarbayeva Shohsanam Muratovna*
SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) ........ 19-23

*Asadova Dilnoza Innatovna*
O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI ........ 24-28

*Ҳайитов Умед Яҳёевич*
ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ ........ 29-34

*Омонова Сарвиноз Ориф қизи*
ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Алимханова Нигора Алимхановна*
ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 43-52

*Mahmudova Dilafruz Hasanovna*
KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI ........ 53-60

*Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li*
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK

MODELLASHTIRISH ........ 61-69

*Мехмоналиев Улугбек Эркинжон угли*
СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ .70-75

*Паязов Мурод Максудович*
"ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ" АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ ........ 76-86

*Шадибекова Дилдор Абдурахмановна*
ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ ........ 87-92

*Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu*
INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION ........ 93-99

*Мамажонова Одинахон Алишер қизи*
КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ........ 100-106

*Nozimov Eldor Anvarovich*
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLARNING O'RNI ........ 107-115

*Буранова Жазира Эрграш қизи*
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА ........ 116-120

*Худойназаров Фахритдин Хаитович*
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ ........ 121-127

*Бахтиёров Бобур Баходир ўғли*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ ........ 128-136

*Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna*
OʻZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 137-145

*Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li*
OLIY TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI ........ 146-150

*Baxtiyorov Asrorbek Azizjon oʻgʻli*
TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI ........ 151-159

*Saidov Shohruh Mirzo*
SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ........ 160-169

*Kunduzova Kumrixon Ibragimovna*
IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XOʻJALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING OʻRNI ........ 170-177

*Inomjon Matkarimov*
AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA’MINLASHNING SWOT TAHLILI ........ 178-183

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Gʻaybullayev Otabek Mixammadiyevich*
JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI ........ 184-189

*Masharipova Gularam Kamilovna*
MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAGʻMINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY’A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI ........ 190-198

*Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна*
ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО-ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ ........ 199-206

*Urinov Xushnudjon Abdulomitovich*
TA’LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI ........ 207-220

*Азизқулов Акрам Абдурахмонович*
ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ ........ 221-227

*Kenjayev Ulugʻbek Muratovich*
BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI ........ 228-232

*Gʻaybullayeva Laylo Safarboyevna*
MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI ........ 233-238

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*
YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI ........ 239-245

*Jabborova Saodat Sattorovna*
MA'NAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI ........ 246-252

*Xusanov G'olib Elmurodovich*
O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI ........ 253-257

*Агзамходжаева Шахноза Саидматмабовна*
МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ ........ 258-265

*O'razov Bobir Baxtiyorovich*
IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI ........ 266-270

*Qunishev Ulug'bek Ulashevich*
NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR ........ 271-275

*Турдибоев Бозор Худойбердиевич*
ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА ........ 276-282

*Kenjayeva Dilrabo Rominovna*
MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 283-287

*Azamatova Gulrukh Islom qizi*
SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION ........ 288-293

*Тошпулатова Ширин Мухиддиновна*
ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 294-302

*Yuldasheva Dilorom Yuldashevna*
SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION ........ 303-307

*Bekchanov Xudoybergan O'rinivich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yulliyeva Sohiba Shuhrat qizi*
MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI ........ 308-314

## *10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*

*Ткебучава Ирина Георгиевна*
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ........ 315-320

*Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi*
TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA) ........ 321-327

*Ashurova Maftuna Asqar qizi*
LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT "HAPPINESS" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........ 328-334

*Mustafayeva Saodat Burxanovna*
SALIM ASHUR SHE'RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIIY TALQIN ETISH ........ 335-340

*Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi*
DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR ........ 341-346

*Xajiyeva Dilfuza Adambayevna*
FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O'RNI VA O'RGANILISHI ........ 347-351

*Jumanova Sevara Xolmurod qizi*
KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA ........ 352-356

*Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna*
MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI ........ 357-366

*Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich*
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION ........ 367-370

*Maxmudova Fotima Maqsud qizi*
TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE ........ 371-375

*Maxmudova Zuhra Maqsud qizi*
BADIIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI ........ 376-380

*Davronova Zulfiya Boboyevna*
UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE ........ 381-386

*Hakimova Dilrabo Yo'ldoshovna*
TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA ........ 387-392

*Мадрахимов Тулибай Абдукаримович*
СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ ........ 393-395

***12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***

*Ergashev Ikrom Abdurasulovich*
SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI ........ 396-402

*Куатбек Гулнар Куатбековна*
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ ........ 403-409

*Jurayev Dilmurot Mukhtarovich*
ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS ........ 410-415

*Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi*
CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) ........ 416-428

*Касимов Нодиржон Содикжонович*
ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ........ 429-438

*Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович*
ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 439-445

*Джалилов Сардор Шавкатович*
ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ ........ 446-453

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Mirzayev Qodir Toirovich*
ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 454-458

*Васильченко Ольга Анатольевна*
ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 459-463

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*
ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ........ 464-470

*Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna*
TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI ........ 471-477

*Jurayev Bobomurod Tojiyevich*
ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI ........ 478-482

*Umurova Ma’rifat Yoshiyevna*
XALQ QO’SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA ........ 483-486

*Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi*
INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOILIYATIDAGI AHAMIYATI ........ 487-492

*Rajabiy Aziz Xasanovich*
VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI ........ 493-497

*Omanov Rashid Sherqobilovich*
O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH ........ 498-501

*Салимов Акром Хайитович*
БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ........ 502-507

*Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich*
TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ........ 508-514

*Ли Екатерина Владимировна*
СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 515-523

*Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна*
ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 524-533

*Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна*
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ ........ 534-541

*Amonov Mirjon Namozovich*
IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI ........ 542-547

*Sharipov Habibullo Abduqahhorovich*
TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O’RNI VA AHAMIYATI ........ 548-552

*Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna*
RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 553-560

*Xakimova Gulshan Abduxalilovna*
JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH ........ 561-565

*Nazarov Rustam Irkinovich*
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE) ........ 566-570

*Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi*
CHIZMACHILIK DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ........ 571-576

*Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna*
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O‘QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 577-585

*Usmonova Matluba Nosirovna*
O‘QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI ........ 586-590

*Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich*
MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI ........ 591-596

*Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitora Bahromovna*
ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION ........ 597-603

*Yeshanov Marat Urazaliyevich*
INGLIZ TILINI O’QITISHDA BO’LAJAK CHET TILI O’QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE) ........ 604-616

*Tursunova Shahnoza Bekchanovna*
JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'RNATISH ........ 617-622

*Atoyeva Gulshoda Rabimovna*
OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI ........ 623-628

*Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi*
JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI ........ 629-635

*Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna*
METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES ........ 636-641

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 3 (4) - 2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Baxtiyorov Asrorbek Azizjon oʻgʻli,**
Fargʻona politexnika instituti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi, assistenti,
e-mail: asrorbekbaxtiyorov23@ferpi.uz

## TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy bank tizimining ajralmas boʻgʻini boʻlgan uning kredit siyosatining mohiyatini oʻrganish va uning asosiy elementlarini tahlil qilishga bagʻishlangan. Muallif koʻrib chiqilayotgan mavzu doirasida turli olimlarning “Tijorat bankining kredit siyosati” toʻgʻrisidagi taʼriflarini koʻrib chiqdi va oʻzining qarashlari asosida oʻz tarifini shakllantirdi. Shuningdek muallif Oʻzbekistonda kredit siyosatining tashkil etish hamda amalga oshirilayotgan islohotlarini tarkibiy qismlarini tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada tijorat bankida mijozlarga kredit berish siyosatining shakllantirishdagi omilariga toʻxtalib, bu munosabatlarini koʻrib chiqadi. Muallif kredit siyosati omillarining oʻzaro bogʻliqligini va ularning kredit operatsiyalarini amalga oshirishda samaradorligiga erishishdagi taʼsirini tahlil etadi.

**Kalit soʻzlar:** tijorat banklari kredit siyosati, kredit operatsiyalarini boshqarish, kredit mahsulotlari, bank operatsiyalari, kredit portfeli, bank tizimi, pul-kredit siyosati, inflyatsiya darajasi, Markaziy bank, Markaziy bankning asosiy stavkasi, bankning likvidlikni boshqarish.

**Baxtiyorov Asrorbek Azizjon oʻgʻli,**
Fergana polytechnic institute,
Assistant, Department of Accounting and Audit,

## FUNDAMENTALS OF THE CREDIT POLICY OF A COMMERCIAL BANK, ITS ECONOMIC ESSENCE

**Abstract.** This article is devoted to the study of the essence of its credit policy, which is an integral part of the modern banking system, and the analysis of its main elements. Within the framework of the topic under consideration, the author reviewed the definitions of various scientists on the "credit policy of a commercial bank" and formed his own definition based on his views. The author also analyzes the components of the organization and ongoing credit policy reforms in Uzbekistan. In addition, the article examines these relationships, affecting the factors of forming a customer lending policy in a commercial bank. The author analyzes the interrelation of credit policy factors and their impact on achieving efficiency in the implementation of credit transactions.

**Keywords:** credit policy of commercial banks, credit management, credit products, banking operations, loan portfolio, banking system, monetary policy, inflation rate, Central Bank, Central Bank key rate, bank liquidity management.

**Бахтиёров Асрорбек Азизжон угли,**
Ферганский политехнический институт,
ассистент, кафедры “Бухгалтерский учет и аудит“,

## ОСНОВЫ КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА, ЕЕ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению сущности его кредитной политики, которая является неотъемлемым звеном современной банковской системы, и анализу ее основных элементов. В рамках рассматриваемой темы автор рассмотрел определения различных ученых о "кредитной политике коммерческого банка" и сформировал собственное определение, основанное на его взглядах. Также автор анализирует составные части организации и проводимых реформ кредитной политики В Узбекистане. Кроме того, в статье рассматриваются эти взаимосвязи, затрагивая факторы формирования политики кредитования клиентов в коммерческом банке. Автор анализирует взаимосвязь факторов кредитной политики и их влияние на достижение эффективности при осуществлении кредитных операций.

**Ключевые слова:** кредитная политика коммерческих банков, управление кредитными операциями, кредитные продукты, банковские операции, кредитный портфель, банковская система, денежно-кредитная политика, уровень инфляции, Центральный банк, ключевая ставка Центрального банка, управление ликвидностью банка.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N20

**Kirish.** Bugungi iqtisodiy islohotlar va oʻzgarishlar davrida kredit operatsiyalarini boshqarish va ularni amalga oshirishni samarali tashkil etish har qanday tijorat banki faoliyatining markaziy oʻrnida turadi, chunki bu orqali mijozlarning turli guruhlariga kredit mahsulotlarini taqdim etish amalga oshiriladi hamda bu tijorat banki daromadlarining katta qismini shakllantirishga yordam beradi. Biroq, bugungi kun mijozlarining zamonaviy talablari sharoitida, bank tizimi istiqbolini ta’minlashda kredit operatsiyalarini boshqarish muammosi yuzaga chiqmoqda, koʻplab kredit tashkilotlarining bunday operatsiyalarni nomukammal rejalashtirishi, amalga oshirishdagi va nazoratni ta’minlashdagi muammolar bunga misol boʻla oladi, bu ularni shakllantirishdagi kredit siyosatining kamchiliklari hisoblanadi, xususan, boshqaruvni haddan tashqari byurokratik toʻsiqlar bilan chegaralash, markazlashtirish, qarz oluvchining moliyaviy tahlilining samarali va yetarli emasligini koʻrsatadi, shuningdek kredit jarayonini samarali nazorat qilishning yoʻqligi ham bor. Bunday muammolar koʻrib chiqilayotgan jarayonni doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini va uning asosiy elementlarini oʻrganish va tahlil qilishning dolzarbligini koʻrsatadi.

Tijorat banklarining samarali kredit siyosati yordamida kredit berish jarayonini yanada aniqroq tashkil etish, uning asosiy tamoyillarini belgilash, amalga oshirishning eng qulay usullari va vositalarini qabul qilish, asosiy ustuvorliklar va strategik maqsadlarni aniqlash mumkin.

Tijorat banklarining kredit siyosati uning kredit berish tizimini tartibga soladi, hujjatlarni roʻyxatdan oʻtkazish va koʻchirish masalalarini tezroq va professional tarzda amalga oshirishga yordam beradi, muassasa kredit siyosati uning istiqboli kelajak faoliyatini belgilaydi umumiy strategiyasi shakllantiradi.

Demak har bir davlatning bank sektori uning umumiy iqtisodiy strategiyasini belgilaydi, buni yaxshi anglagan yurtimiz rahbariyati xususan muhtaram prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida soʻngi yigʻilishlaridagi nutqlarini kuzatar ekanmiz, bir necha bor aynan kreditlar va tijorat banklarining kredit siyosati toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtganliklarini kuzatishimiz mumkin, misol uchun 2023-yilning 20-noyabrdagi bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi boʻyicha yigʻilishdan iqtibos keltiramiz “…soʻnggi uch yilda banklar kapitali 1,8 baravarga, yillik kredit ajratish hajmi 2 baravarga koʻpaydi. 4 ta bank ilk bor “yevrobond” chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. Ipoteka-bankka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozogʻiston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshdi” [1].

Joriy yilning 16-yanvar kuni "Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida prezidentimiz tomonidan "Bank tizimi barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotga kreditlar yo'naltirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Bozor mexanizmlari asosida kredit stavkalarini kamida 2-3 foizga tushirish bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi" [2].

Darhaqiqat so'ngi yillarda yurtimiz iqtisodiyoti yanada yuksalib bormoqda, kuchli raqobat muhiti tobora har bir sohaga kirib bormoqda bundan bank sektori ham mustasno emas, aholi va tadbirkorlarni o'sib borayotgan talablari sohada transformatsiya jarayonlarini yanada jadallashtirishni va keyingi yillar uchun ustuvor vazifalarni va strategiyalarni ishlab chiqish vazifalarni belgilashni taqozo etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tijorat bankining kredit siyosati konsepsiyasi ilmiy iqtisodiy nashrlarda keng muhokama etilgan mavzulardan hisoblanadi. Xususan, rus iqtisodchi olimi O.I. Lavrushin ushbu atama bilan "bankning kredit operatsiyalari sohasidagi strategiyasi va taktikasini tushunadi, uning asosini aktivlarni ko'paytirish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan xatarlarni boshqarish tizimi tashkil etadi" deb yozadi [3; 241 b].

Rus iqtisodchi olimlari M.S. Maramigin va boshqalar muallifidagi "Bank va bank operatsiyalari" nomli darsligida tijorat bankining kredit siyosati to'xtalar ekan shunday ta'rifni ishlatadi "Kredit siyosati-bu bankning investitsiya va kredit faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish sxemasi. U aniq kredit berish to'g'risida qaror qabul qilishda va umumiy kredit portfelining tuzilishini tanlashda bajarilishi kerak bo'lgan asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Aslida, bankning kredit portfelining tarkibi uning kredit siyosatini aks ettirishi kerak" [4; 176 b].

Aynan shunday tarif yana bir "Pul, kredit, banklar" nomli darslikda uchratish mumkin, lekin ushbu darslikda e'tiborlisi unda davlatning umumiy pul-kredit siyosati haqida to'xtalib, "ushbu siyosat mamlakatda pul muomalasini tartibga solishga, umuman iqtisodiy tizim faoliyatining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi" deb yozadi [5; 66 b].

A.A. Kazimagomedov "Bank ishi" darsligi "Bankning kredit siyosatining asosiy roli mablag'larni to'plash va investitsiya qilish, kredit jarayonini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish jarayonida bank faoliyatini optimallashtirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashdan iborat"[6; 446 b].

Yurtimiz olimlari tomonidan xam bankining kredit siyosati haqida turli fikrlar bildirilgan misol uchun so'nggi yillardagi adabiyotlar mualliflari olimlar A.A. Omonov va F.K. Xolmamatovnig "Bank ishi" nomli o'quv qo'llanmasida "Bankning kredit siyosati — kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart" deb keltirilgan [7; 76 b].

Olimlar Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekova davlat va markaziy bankning kredit siyosati haqida "Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. Ya'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish

funksiyasiga chek qoʻyiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi" deb yozadi [8; 18 b].

Um Bizning fikrimizcha, "Tijorat bankining kredit siyosati" bu kredit operatsiyalarining rentabelligini oshirishga va samaradorligini taʼminlashga qaratilgan harakatlar ketma-ketligini algoritmidir, bu bankning strategiyasi va taktikasini belgilaydi.

Kredit siyosatining maqsadi bank faoliyatining yakuniy natijasini koʻrsatadi, uning asosiy maqsadi – mijozlarning zarur qoʻshimcha mablagʻlarni olishga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishni belgilaydi.

Kredit siyosatining maqsadlari bank kreditlari tarkibini yaxshilashga, kafolatlangan kreditlar ulushini oshirishga va ularning aylanmasini tezlashtirish zarurligiga qaratilgan.

Bankning kredit siyosatining mohiyati eng kam kredit xavfini taʼminlaydigan barcha kredit operatsiyalarining xavfsizligi, rentabelligi va ishonchliligini taʼminlashdan iborat. Tijorat tashkilotlarining kredit siyosatining asosi, qoida tariqasida, rentabellik darajasi va muayyan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan potensial xavflarning maqbul nisbati hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Tadqiqotning maqsadi tijorat bankining kredit siyosati rolini, uning asosiy elementlari va iqtisodiy mohiyatini oʻrganishdan iborat boʻlib, uning nazariy asoslari maqolada muhokama qilinadi hamda takomillashtirish boʻyicha xulosalar shakllantiriladi. Ishda olimlarning fikrlarining tahlil, muammoga tizimli yondashuv kabi usullari qoʻllaniladi. Tijorat bankining kredit siyosatining funksiyalari va tarkibiy boʻlimlari, yoʻnalishlari hamda kredit tashkilotida tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar oʻrganiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tijorat banklarining kredit siyosati bu koʻproq oddiy tushuncha hisoblanadi. Zero, bunda biz jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishni nazarda tutamiz. Yirik va tajribali tijorat banklarining kredit siyosati ularning yosh raqobatchilar oʻrtasidagi vaziyatga qarashlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli, bozorda qarz oluvchilarga talab ortib borayotgan moliyaviy institutlar mavjud va aksincha, kreditlar beradigan "chap va oʻng" tizimlar mavjud.

Kredit siyosatiga taʼsir qiluvchi omillar:

Moliya institutlarining kredit siyosatiga deyarli bir qator mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy omillar taʼsir koʻrsatmoqda.

Birinchi guruhga maʼlum bir korxona sharoitida aktivlarning likvidligi, alohida bank muassasasining ixtisoslashuvi, mijozlar bazasining oʻziga xos xususiyatlari, qoʻshimcha moliyalashtirishni jalb qilish va resurs bazasining oʻziga xos xususiyatlari kabi koʻrsatkichlar kiradi. Xodimlarning malaka darajasi baʼzi hollarda hal qiluvchi rol oʻynaydi, chunki barcha mutaxassislar, masalan, ishonchsiz qarz oluvchilar bilan ishlashga qodir emaslar.

Makroiqtisodiy tarkibiy qismlar orasida, birinchi navbatda, bank sektoridagi raqobat darajasi, milliy valyutaning kotirovkalari holati, foiz stavkalari, inflyatsiya, shuningdek, hozirgi paytda davlat boshdan kechirayotgan iqtisodiy sikl bosqichini taʼkidlash lozim.

Huquqiy masalalar ham chegirilmasligi kerak, chunki ular tijorat banklari maʼmuriyatiga tegishli koʻrsatmalar yuborish orqali bank zaxiralari hajmiga, foiz stavkalarining oʻzgarishi yoki oʻzgarmasligiga, shuningdek boshqa operatsion parametrlarga taʼsir qilishi mumkin.

Bank kredit siyosatining yoʻnalishlari:

Tijorat banklarining kredit siyosatining asosiy yoʻnalishlari qatorida biz ishlab chiqilgan siyosat kabi atamani ajratib koʻrsatmoqchimiz. Uni amalga oshirish jarayoni hujjatlar va koʻrsatmalarni ishlab chiqishdan iborat boʻlib, ularning yordamida mijozlar bilan oʻzaro munosabatlar bosqichlari va ularni baholash mezonlari, asosiy operatsiyalarni tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari, shuningdek boshqa muhim jihatlar aniqlanadi. Har qanday bankning kredit siyosatining asosiy xususiyati haqli ravishda uning beqaror tabiati hisoblanadi. Qabul qilingan qoidalar davlatdagi iqtisodiy vaziyatning oʻzgarishiga qarab muntazam ravishda oʻzgarib boradi va qayta koʻrib chiqilishi kerak.

Mamlakatimizda 2023-yilda iqtisodiy rivojlanish qat’iy moliyaviy sharoitlar ta’sirida global inflyatsiya darajasining sekinlashuvi, aksariyat iqtisodiyotlarda faollikning pasayishi sharoitida rivojlanmoqda. Yuqori fiskal ragʻbatlantirishlar, investitsion faollikning ortishi, kreditlash sur’atining tezlashishi, pul oʻtkazmalari hajmining oʻtgan yilga nisbatan sezilarli pasayishi ham iqtisodiy sharoitlarda oʻz aksini topdi.

Bu esa, 2022-yilda ishlab chiqilgan “Pul-kredit siyosatining 2023-yil va 2024-2025-yillar davriga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari”da makroiqtisodiy rivojlanishning prognoz qilingan ham asosiy ssenariy, ham muqobil ssenariyda keltirilgan ayrim shartlarning bir vaqtda vujudga kelayotganligi bilan bogʻliq [9].

Pul-kredit siyosati samaradorligi bu borada qabul qilinayotgan qarorlarning iqtisodiy jarayonlarga va pirovardida, inflyatsiya darajasiga transmissiyasi bilan bogʻliq. Inflyatsion targetlash rejimida pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti Markaziy bankning asosiy stavkasi boʻlib, u boʻyicha qabul qilingan qarorlar pul-kredit operatsiyalari orqali, birinchi navbatda, milliy valyutadagi qisqa muddatli likvidlik narxini tartibga solishga xizmat qiladi va kelgusi davrlarda depozitlarning foiz stavkalaridagi oʻzgarishlar orqali uzoq muddatli aktivlar narxlari oʻzgarishiga sharoit yaratadi.

Pul-kredit siyosati samaradorligi bir tomondan, moliyaviy vositachilikning yetarli darajada rivojlanmaganligi hisobiga aktivlar narxi shakllanishida pul bozoridagi foiz stavkalarining ta’sirchanlik darajasini pastligi bilan cheklansa, ikkinchi tomondan, bank tizimida depozitlar, kreditlar va majburiyatlar dollarlashuvining yuqoriligi, imtiyozli kreditlash amaliyoti va inflyatsion kutilmalarning jilovlanmaganligi kabi sabablar ta’sirida yuqori boʻlmaydi.

Dollarlashuv darajasining yuqoriligi pul-kredit va valyuta siyosatlarining maqsadlariga erishishiga va ularning samaradorligiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Xususan, iqtisodiyotda tranzaksiya va bitimlarning ma’lum qismini xorijiy valyutada amalga oshirilishi pul-kredit siyosati transmissiyasining foiz kanaliga salbiy ta’sir koʻrsatadi va valyuta kursining inflyatsiyaga boʻlgan ta’sirini kuchaytiradi. Shuningdek, moliyaviy dollarlashuv yuqori kredit va likvidlik xatari orqali moliyaviy barqarorlikka ham salbiy ta’sir etadi.

Oʻzbekistonda moliyaviy dollarlashuv darajasi aksariyat MDH davlatlaridagi kabi yuqori shakllangan boʻlib, soʻnggi yillarda yuritilayotgan pul-kredit va fiskal siyosat ta’sirida pasayib bormoqda. Xususan, iqtisodiy oʻtish davrida amalga oshirilayotgan tarkibiy oʻzgarishlar, islohotlar va loyihalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashda tashqi manbalardan keng foydalanilganligi, global foiz stavkalarining pastligi hisobiga 2018-2021-yillarda tijorat banklari tomonidan tashqi kredit liniyalari faol jalb etiladi.




**1-rasm. Ajratilgan kreditlarda imtiyozli kreditlar ulushi**[1]

Tijorat banklari siyosatining barcha turlari uning faoliyatining maqsadlari boʻlib, ular sifat va miqdoriy ifodaga ega boʻlib, kredit tashkilotining samarali ishlashi uchun rejalar va mezonlarga aylangan.

Bankning kredit siyosati universal vosita boʻlib, undan toʻgʻri foydalanish ma’lum bir kredit tashkilotining umumiy moliyaviy natijasini belgilaydi. Kredit tashkilotlarining kredit siyosatining asosi, qoida tariqasida, rentabellik darajasi va muayyan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan potensial xavflarning maqbul nisbati hisoblanadi. Yirik tijorat banklarining kreditlash segmentidagi siyosat ularning yangi boshlanuvchilar oʻrtasidagi vaziyatga qarashlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Hozirgi paytda aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning kichik tadbirkorlik gʻoyalarini qoʻllab-quvvatlash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadida turli davlat dasturlari doirasida imtiyozli kreditlash amaliyotini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga oʻtkazish boʻyicha choralar koʻrilmoqda.

Bu tadbirlar doirasida imtiyozli kreditlarning ulushi yildan-yilga pasayib borayotgan boʻlsa ham, nisbatan yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Xususan, ajratilgan jami kreditlar hajmida imtiyozli kreditlar ulushi 2018-yildagi 49,1 foizdan joriy yilning dastlabki 9 oyida 17,5 foizgacha pasaygan boʻlsa, imtiyozli kreditlarning jami kredit qoʻyilmalaridagi ulushi 2018-yil yakunidagi 55,8 foizdan joriy yil 1-oktyabr holatiga 29,5 foizgacha qisqardi (1-2-rasmlar).

[1] https://cbu.uz/oz/monetary-policy/trend/




**2-rasm. Kredit qo‘yilmalari qoldig‘ida imtiyozli kreditlar ulushi[1]**

Umuman olganda, pul-kredit siyosati transmissiyasi samaradorligini oshirishda inflyatsiyani pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning davom ettirilishi, milliy valyutadagi ijobiy real foiz stavkalarining saqlanib qolishi, kapital bozorlarini va alternativ jamg‘arish instrumentlarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli choralarning amalga oshirilishining dolzarbligi kelgusi yillarda ham saqlanib qoladi.

**Xulosa va takliflar.** Har qanday siyosat singari, kredit siyosati ham kreditni boshqarishning strategik va operatsion darajalarida amalga oshiriladi, bu esa uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlar o‘rtasidagi birlikka erishishga imkon beradi:

- bankning kredit siyosatini amalga oshirishning strategik maqsadi uzoq muddatli istiqbolda barqaror, ishonchli va doimiy rivojlanayotgan kredit munosabatlarini yaratishdir;
- operatsion maqsad o‘z mijozlarining kredit mahsulotlariga bo‘lgan talabini kerakli vaqtda tegishli rentabellik va likvidlik bilan qondirishdir.

Bizningcha kredit siyosatining shakllantirishda quyidagi omilarga bog‘liq:

- kredit portfelini shakllantirish maqsadi. Bank uchun maqbul bo‘lgan kredit turlari, ushbu kreditlarning dolzarbligi, hajmi va sifati ko‘rsatilgan;
- har bir kredit inspektoriga va umuman kredit qo‘mitasiga berilgan kreditlarni berish sohasidagi vakolatlarning tavsifi;
- kredit boshqaruvi doirasida huquqlarni o‘tkazish va axborot bilan ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar;
- qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash bilan bog‘liq kredit arizasi bo‘yicha baholashni tekshirish va qaror qabul qilish amaliyoti;
- kredit arizasiga biriktirilgan va kredit faylida saqlanadigan zarur hujjatlar.

[1] https://cbu.uz/oz/monetary-policy/trend/

Bankning kredit siyosati xalqaro amaliyotda bank direktorlar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va uni amalga oshirish jarayonida mijozlarning kredit mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish va bank foydasining asosi boʻlgan kredit tashkiloti tomonidan foizli daromad olish orqali iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantirishni taʼminlashi kerak.

Bank kredit siyosatining barcha elementlari boʻyicha asosli qarorlar qabul qilishi uchun bank faoliyatining umumiy maqsadlarini aniq va puxta belgilash, kredit bozorini adekvat tahlil qilish, bank resurs bazasini rivojlantirish istiqbollarining ravshanligi, bank faoliyati sifatini toʻgʻri baholash muhimdir.

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholash kreditga xizmat koʻrsatishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladi va yangi kredit berishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi toʻgʻrisida qaror qabul qilish va bankning kredit portfelini koʻpaytirish imkonini beradi.

Bankning oʻz kredit siyosatining yoʻqligi yoki uning rasmiy mavjudligi kredit jarayonini sifatsiz rejalashtirishni, shuning uchun faoliyatning ushbu eng muhim sohasini yetarli darajada boshqarmaslikni anglatadi. Samarali kredit siyosati kredit jarayonini tashkil qilishda notoʻgʻri boshqaruv qarorlarini qabul qilish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 20-noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi boʻyicha yigʻilishi. https://president.uz/oz/lists/view/6875
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlash boʻyicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yigʻilishi. https://president.uz/oz/lists/view/6971
3. Деньги, кредит, банки: учебник для студентов, обучающихся по направлениям “Экономика” / [Лаврушин О. И. и др.]; под ред. О. И. Лаврушина; Финансовый ун-т при Правительстве Российской Федерации. – 11 -е изд., перераб. и доп. – Москва: КноРус, 2013. – с. 442.
4. Банковское дело и банковские операции : учебник / М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева, Е. Н. Прокофьева, А. Е. Заборовская, А. С. Долгов; под ред. М. С. Марамыгина, Е. Г. Шатковской ; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный экономический университет. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2021. – 567 с.
5. Деньги, кредит, банки : учебник / под общ. ред. М. С. Марамыгина, Е. Н. Прокофьевой. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. – 384 с.
6. Банковское дело: организация деятельности центрального банка и коммерческого банка, небанковских организаций: учебник / А.А. Казимагомедов. – Москва: ИНФРА — М, 2020. – 502 с.
7. A.A. Omonov, F.K. Xolmamatov. Bank ishi. (Oʻquv qoʻllanma) T.: “Nihol print” OK, 2021. — 228 b.
8. Z.Mamadiyarov, M.Maxmudova, M.Kurbonbekova Bank ishi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 – 160 b.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023 yil 18 noyabrdagi 39/1-sonli “Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025-2026 yillar davriga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari belgilash toʻgʻirisida” gi Qarori.
10. Кудбиев, Н. Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПРЕДПРИЯТИИ С КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 87-93.

11. Кудбиев, Н., & Тожиматов, А. (2023). KORXONALARNING TIJORAT BANKLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 75-84.
12. Asrorbek, B. (2023). DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 3(03), 25-31.
13. Бахтиёров, А. (2023). BANK MENEJMENTI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 111-119.
14. Asrorbek, B. (2024). The Company's Relationship Systems with Commercial Banks. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(1), 28-37.
15. Nabievich, I. I. (2023). The Role and Specifics of the Valuation Method in Accounting. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(5), 24-31.
16. Akbaralievich, E. A., & Akbarovich, M. A. (2023). Features of the Formation and Accounting of the Authorized Capital in Organizations of Various Forms of Ownership. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 13-20.
17. Зиёдинова, Н. (2023). ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 173-179.
18. Кундузова, К. (2023). Onlayn moliyaviy xizmatlarning xususiyatlari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/7).
19. Исманов, И. Н. (2023). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ АНАЛИЗА ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ. In Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики (pp. 115-120).
20. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.
21. Темиркулов, А. А. (2019). Государственное управление инвестиционной деятельностью. Проблемы современной науки и образования, (12-2 (145)), 97-101.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I3Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).